FARG‘ONA VILOYATI UCHKO‘PRIK TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - noyabr 269-11-162-Q/22 Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan Uchko‘priktumani xududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Uchko‘prik tumani xududidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (D.Ergashev):

mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tumanobodonlashtirishboshqarmasi (D.Ergashev):

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’yektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror Yangi Учкўприк gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari H.Ummatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Q.Asqarov**

Uchko‘prik tuman hokimining
2022 yil 30 noyabrdagi
269-11-162-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uchko‘prik tumani xududidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan (foiz hisobida)
1	Go‘r qazish *(diniy mansubligidan qat’i nazar, katta o‘lchamda)*	1 o‘ringa	50
2	Go‘r qazish *(diniy mansubligidan qat’i nazar, kichik o‘lchamda)*	1 o‘ringa	40
3	Go‘r qazish *(diniy mansubligidan qat’i nazar, 3 yoshgacha)*	1 o‘ringa	bepul
4	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
5	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘ringa/kunga	bepul